



BERDAQ DUNYOSI

Abdiraimova Yorqinoy O'tkir qizi
Toshkent Pediatriya Tibbiyot Instituti Oliy hamshiralik ishi
fakulteti 201 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10673437>

ARTICLE INFO

Received: 09th February 2024

Accepted: 13th February 2024

Published: 17th February 2024

KEYWORDS

Berdaq hayoti va ijodi, uning xalq qalbidan chuqur joy olgan she'rlari mazmuni, Vatanni qadrlashga undovchi say-harakatlari.

ABSTRACT

Berdaq- qoraqalpoq xalqining buyuk farzandi, buyuk shoir, tug'ma iste'dod sohibi. Ushbu maqolada qoraqalpoq xalqining ardoqli shoiri bo'lgan Berdaq haqida so'z yuritildi.

Berdaq 1827 yilda Orol dengizining janubiy sohilidagi Oqqal'a shahrida (hozirgi Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq viloyati hududi) tug'ilgan. Uning otasi Gargabay kambag'al baliqchi bo'lib, boy feodallar - baylarga doimiy ravishda xizmat qilgan. Berdaqning bobosining ismi Bo'ranbay, bobosining ismi Tynet edi. Berdaqning onasi Qarqara ham Muiten urug'idan bo'lgan bir kambag'alning qizi edi. Xalq orasida Berdaqning bobosi o'g'lining to'yiga kelin pulini topa olmay, uni och yili kambag'allardan birining qiziga uylantirib, qovun urug'i bilan fidya qilib bergani haqida hikoyalar bor.

Pushkin - rus xalqi uchun, Shevchenko – ukrain xalqi uchun, Rustaveli – gruzinlar uchun, Navoiy – o'zbeklar uchun, Abay – qozoq millati uchun va Maxtumquli – turkmanlar uchun sevimli va ardoqli shoir hisoblangani kabi Berdaq ham qoraqalpoq xalqining Berdaq mumtoz adabiyotining cho'qqisi desak mubolag'a bo'lmaydi. Dathaqiqat, Berdaqning she'rlari inson qalbidan chuqur joy egallaydi. Qancha o'qisangiz ham aslo to'ymaysan, kishi.

Berdaqning ijodida mehnatkash xalqning ahvoli asosiy mavzudir. Jumladan, "Bo'lgan emas", "Soliq", "Bu yil", "Umrin" va boshqalar. Shoir haqiqat uchun, mehnatkash ommaning baxti va kelajagi uchun fidokor kurashchilarni orzu qiladi:

So'zim o'lmas, doim tirik qolaman,

Xalqim bor-ku, yovdan o'chim olaman...

Darhaqiqat, shoirning "Xalq uchun", "Menga kerak" va boshqa asarlarda shularni kuzatishimiz mumkin. Tarixiy mavzudagi "Avlodlar", "Omongeldi", "Azadosbiy", "Ernazarbiy" asarlarida shoir xalq qahramonlarini faxr bilan kuylaydi. Berdaqning "Avlodlar" asari tarixiy voqealar

solnomasi hisoblanadi. Uning she'rlari ayollar huquqini himoya qilish, yoshlarga vatanni sevisish va ma'rifat cho'qqilarini egallashga chaqiradi. Berdaq inson o'z faoliyatida, xatti-harakatida, maqsadiga erishishida erkin ekanligini yozadi. Masalan; u "Axmoq podsho" dostonida ayrim boylar va amaldorlarning jabr-zulmi oxirgi nuqtasiga borib taqalgandan so'ng sabr-toqati tugagan xalq o'z ixtiyori bilan ularga qarshi bosh ko'taradi deb aytadi. Berdaq ijodiy merosida axloq, xulq-odob, nafosat va go'zallik masalalari muhim o'rinni egallaydi. Uning she'rlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, vatanparvarlik, xalqlar do'stligi, oddiy axloq qoidalari to'g'risida qimmatli fikrlar uchraydi. Shoirning aytishiga qaraganda, ba'zi mulla va eshonlar xalq oldida o'zlarini halol va pok, adolatparvar etib ko'rsatadilar. Amalda esa buning aksini ko'ramiz. Shoir ularning munofiqligini fosh etib tashlaydi. Berdaq qo'p she'rlarida bolalarni tarbiyalash, kattalarni hurmat qilish, yosh avlodga vatanparvarlik, o'z xalqiga muhabbat, xalqlar o'rtasida do'stlik va birodarlik g'oyalarini singdirishga intildi. O'z davrining qozibeklariga, zo'ravonlariga qarshi ochiq-oydin haqiqatni she'r bilan bitish shoirlarning mardigagina nasib etadi. Shuning uchun ham, mashhur qirg'iz adibi Chingiz Aytmatov Berdaq ijodi bilan tanishganidan so'ng: "Berdaq — haqiqatning oldida yigit bo'lib qoldi, degandi.

Berdag asarlari ko'pgina jahon tillariga tarjima qilingan. Ayniqsa, o'zbek tilida Mirtemir va Shuhrat domlalar, rus tilida Semyon Lipkin va Naum Grebnevning tarjimalari mashhur.

Bugungi kunda Berdaqning adabiy merosi yangi avlodning barkamol bo'lib voyaga yetishiga xizmat qilayotir. Berdaq qoraqalpoq xalqining mashhur shoiri, asl farzandidir. Qoraqalpog'istondagi ko'pgina maktablar, ko'chalar, kinoteatrlar, kutubxonalar shoirning nomiga qo'yilgan. Shuningdek, Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston davlat mukofoti ta'sis etilgan. Bu mukofot badiiy adabiyot, san'at va me'morchilik sohasidagi eng yaxshi ishlarga beriladi.

Berdagning yuksak insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan adabiy, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy g'oyalari hozirga mustaqillik sharoitida ham o'z tarbiyaviy ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qurbonboyev B. Berdaq va o'zbek adabiyoti, Toshkent. 1986.
2. Tanlangan asarlar, Nukus. 1956.
3. O'zME. Birinchi jild, Toshkent